

## DIALOGIK MATNDA UNDOVLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6341779>

**Yodgorov Jaloliddin Jamolidinovich**

*O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va  
folklori instituti tayanch doktoranti  
Toshkent, O'zbekiston Respublikasi*

**Annotatsiya:** *Maqolada undov so'zlarning badiiy (dialogik) matndagi lingvistik va poetik aktualashuvi borasida so'z boradi. Xususan, undov birliklarning nutqiy periferiyalararo moslashuvchan jihatlari hamda ularning pragmatik va estetik xususiyatlari to'g'risida fikr bildiriladi.*

**Tayanch so'z va iboralar:** *lingvopoetik sath, dialog, dialogik nutq, lingvistik belgi, sinkretik nutq, kommunikativ xarakter, individual uslub, irratsional modellashtirish.*

Zamonaviy tilshunoslikda badiiy matnni gnoseologik va kommunikativ, milliy hamda antropotsentrik jihatlarni lingvopoetik sathda o'rganish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Zero, so'z rassomi (badiiy matn muallifi, sub'ekt) tomonidan ma'naviy va hissiy jihatdan o'zlashtirilgan hamda irratsional modellashtirilgan dunyo voqeligi hayotiy bog'liqliklar bilan uzviy hamohangligi ta'minlangan holda badiiy matnda akslanadi. Shuningdek, badiiy bilish va voqelikni badiiy tasvirlash qonuniyatlari taqozosi bilan tasvir etilgan bayon doirasidagi matn yozuvchi va kitobxonning faol dialogik (qamrov) ta'siri natijasida shakllanadi. Natijada psixolingvistik va lingvomadaniy ko'p qirrali hodisa bo'lgan badiiy matn o'zining aqliy va konstruktiv-lingvistik xususiyatlarini o'zida jamlaydi. Bu jihatdan olib qaralganda, til inson xatti-harakatining bir turi va biologik (psixologik) hamda sotsiologik fakt bo'lib, bu tizim(sistema)ning o'zaro ta'sir sharoitida boshqa tizimlar bilan (umumiy ma'noda) birgalikdagi hayotga bog'liq bo'lgan ko'rinishidir. Haqiqatdan, tilning badiiy matnda ko'p qirrali hodisa sifatida shakllanishi, uning semantik maydoni, tuzilishi, matniy birliklar va ularning ansambllari, badiiy voqea-hodisani ifodalash shakllari hamda semantik kombinatorlik kabi kompozitsion imkoniyatlari o'quvchini matndagi ob'ektiv voqelikka jalb qilishni ta'minlaydi.

Insonning nutqiy faoliyati xilma-xil hodisa bo'lib, bu xilma-xillik nafaqat alohida ijtimoiy guruhlarda, ma'lum bir til, dialekt(ma'lum bir shaxsning lahjasida)da, hatto so'z qo'shimchasida ham korporativ tarzda namoyon bo'ladi. Shu va shu kabi omillarni hisobga olmasdan va ularga funktsional jihatdan mos keladigan nutq



turlarini o'rganmasdan turib, tilni bevosita jonli idrokka berilgan hodisa sifatida o'rganish yoki uning genezisi, ya'ni "tarixi"ni tushunish mumkin emas. Bu hodisaning badiiy matndagi dialoglarda turli periferiyalar bilan akslanishi kommunikantlar o'rtasidagi axborot uzatishning ko'p maqsadli (poliintentsiyali) tomonlarini qamraydi. Bu jihatdan olib qaralganda, so'nggi o'n yilliklarda dialog tushunchasi va uni o'rganish kengaydi hamda uning nutqiy akt yaratilishdagi "server" xususiyati har tomonlama tadqiq etilmoqda. Xususan, sotsiologik va psixologik-lingvistik, estetik va kulturologik, rasmiy-strukturaviy, funktsional, kommunikativ-pragmatik va adabiy-stilistik joriy ishlarda so'zlashuv dialogi, muallif va qahramon hamda muallif va o'quvchi o'rtasidagi nutqiy o'zaro ta'sirni o'rganish salmoqdorligi bilan ajralib turadi [1].

Darhaqiqat, dialog filologiya fanining murakkab nazariy kategoriyasi hisoblanib, tilshunos va adabiyotshunos olimlar dialogni nutq shakllaridan biri sifatida hamda badiiy adabiyotda turli vazifalarni bajaruvchi voqelik sifatida talqin etiladi. Tadqiqot tamoyillarining xilma-xilligi, bundan tashqari, ulardagi turli nuqtai nazarlar dialogni o'rganish va talqin qilishda o'ziga xos yondashuvlarni yetarli emasligini ko'rsatadi.

Dialog XX asr gumanitar tafakkurining asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, uni nafaqat filologiya, balki falsafa, psixologiya, pedagogika, sotsiologiya kabi boshqa sohalarning ham o'rganuvchi maxsus tadqiqot yo'nalishlarining paydo bo'lishi bilan tasdiqlash mumkin. Zamonaviy filologiya fanining rivojlanishi dialogga adabiy tadqiqot ob'yekti sifatida yanada yaqinroq va har tomonlama e'tibor qaratishni talab qiladi.

Nazariy fikrlar tarixi shuni ko'rsatadiki, "muloqot" tushunchasi bir qator gumanitar fanlarda katta qiziqish uyg'otib keladi, lekin faqat tilshunoslik va adabiyotshunoslikda bu tushuncha fundamental ahamiyatga ega. Har qanday nazariy kategoriya singari, dialog ham ilmiy tushunishda ham keng, ham tor ma'noga ega bo'lib, keng ma'noda dialog (yunoncha "**dialogos**" – suhbat) ikki yoki undan ortiq shaxslar o'rtasidagi suhbat, ular o'rtasidagi aloqa, ikki ong va tasavvurning uchrashuvi sifatida talqin etiladi. Tor ma'noda esa dialog nutq shakllaridan biri sifatida tushuniladi [2].

Muloqotni amalga oshirishning asosiy sohalari: og'zaki so'zlashuv nutqi va tildan estetik foydalanish sohasi – badiiy adabiyotdir. Shuning uchun dialog asosan so'zlashuv nutqi va badiiy adabiyot materiali asosida o'rganiladi hamda lingvistik ongdagi dialog lug'at, sintaktik konstruktsiyalar va intonatsiyani tanlash orqali tushuniladi. Bunda barcha lingvistik vositalar nutqiy vaziyatlarni yaratadi va turli xil dialogik munosabatlardagi nutqiy tashkillanishlarni lingvistik matn doirasida



birlashtiradi. Shu bilan birga, replikalarning mazmun va konstruktiv aloqasi dialogik nutq uchun xosdir. Adabiy tushuncha sifatida esa dialog nafaqat dunyo bilan ko'p funktsiyali aloqalarida tilning tizimli birligi, balki adabiy asar muallifining ijodiy ruhi bilan to'ldirilgan majoziy "materiali" hamdir. Shu munosabat bilan u adabiy asarning tashqi va ichki tuzilishining ko'p qirrali murakkabligidan ajralmas qism hisoblanadi.

Zamonaviy lingvistik adabiyotlarni tahlil qilish natijasida turli janrdagi dialoglardagi so'zlashuv nutqi korpusi hamda nutqiy aktlarda undov birliklarning ahamiyatini o'rganishda davomli ishlar mavjudligini ko'rsatmoqda. Xususan, undovning gap bo'laklari nazariyasi yoki gapni grammatik va hissiy shakllanish doirasida hamda badiiy matnda monologik va dialogik nutqiy vaziyatlardagi statusi lingvopoetik jihatlari tadqiqotga muhtojdir.

Undov so'zlar so'zlovchining sinkretik nutq mahsuloti, uning his-tuyg'ularining hosilasi bo'lib, yo'naltirilgan axborotga va gapning talaffuz qilishdagi shartlanganligi(emotiv-hissiyli)ga moslanuvchanligidir. Zero, V.Vinogradov ta'rifga ko'ra ham, undov so'zlar so'zlashuvchilarning hissiyotlari va ularning iroda impulsini ekspressiv va dramatik ifodalash uchun lingvistik vositalarning ijtimoiylashtirilgan fondidir. Undovlarning intonatsion-fonetik xususiyatlari, ularning ta'sirchan ranglanishida mimika va imo-ishoraning qo'shilishi ularning semantik tuzilishining nihoyatda muhim qismidir [3]. Xususan, badiiy matndagi dialogizatsiya muammosi adabiy dialogni tabiiy nutq dialogi bilan taqqoslash va dialogik muloqotning tarkibiy hamda semantik tashkil etilishini o'rganish bilan bog'liq. Xususan, dialogik nutqda undov aktini namoyon bo'lishi uchun nutqiy vaziyat hosil qilish, nutqiy vaziyat ishtirokchilarining ruhiy jihatlari aynan shakllantirish talab etiladi. Shuningdek, sub'yektning dialog tuzishdagi "maqsadi" ushbu dialog qatnashchilarini o'zi demoqchi bo'lgan fikrlar majmuini markazida ushlab turishdan iborat bo'lishidir. Bu vaziyatda u asar qahramonlari nutqiga o'ziga xos "cheklov" va "vakolatlar" berib borishi natijasida o'z maqsadiga erishadi.

*Bir necha daqiqqa muqaddima uchun reja qurib o'lturgandan so'ng tilga keldi:*

– O'g'lim, Otabek.

–So'zlangiz.

–Aytingiz-chi, men sizni kimingiz?

*Otabek Hasanalining maqsadig'a tushunolmay majhul unga nazar tashladi:*

– Sizmi ? – deb kulimsiradi. – Otam bo'lmasangiz ham meni otaliq muhabbati bilan suyg'an sodiq va mehribon bir kishimsiz – ya'ni ma'naviy otam.

– **Barakalla**, o'g'lim, – dedi Hasanali, – javobingiz o'z o'ylag'animchadir [4].

Dialogik matnda emotsional muhitni ierarxik tarzda rivojlanishi tomonlar(Otabek va Hasanali)ning qisqa nutqiy birliklari va ikki tomonning ham



suhbat vaziyatidan ko'zlangan maqsad(Otabekda Hasanali paydo bo'lgan shubhaga javob, Hasanali esa shubhaning o'zi uchun "foydali" yakuni)ga tomon intilishlarida ko'rinadi. Nutqiy yakunning aynan undov (*Barakalla*) bilan yakunlanishi (ba'zida boshlanishi) dialogik "niyat"ning ikki tomonlama samarasini ko'rsatadi. Birinchidan, asar o'quvchisiga mohir yozuvchimiz tomonidan "yuqtirilgan" hamdardlik va hadik, ya'ni personaj(Hasanali) ruhidagi tahlika toki dialogda undov(*Barakalla*)ni qo'llanishigacha bo'lgan badiiy masofani egallab turibdi. Qo'llanilgan undov akti bu masofaning hayrli "finishi" bo'lishini ta'minlagan. Ikkinchidan, adib dialog replikalari bo'ylab personaj(Hasanali) hohlagan javobni mushtoqlik bilan, birgalashib kutishga o'zlari bilmagan "ip" bilan bog'lab qo'yadi. Dialoggacha bo'lgan bayondan o'quvchini qalbida ham Otabekka bir qadar gumon ortadi. Nutqiy replikalararo undovning o'ziga xos "sharpa"si sezilib tursa-da, yana o'sha fikr, o'quvchi asar personaji (Hasanali) bilan ijobiy javob olish maqsadada, ehtiyotkorlik bilan Otabekning "og'ziga ko'z tikib turishadi". Replikadagi "*Barakalla*" o'quvchini ruhiy bosimdan olib chiqadi va, qaysidir ma'noda, undan hissiy ta'siriylik birmuncha chekinadi.

Poetik nutqning emotsional-ekspressivligini kuchaytiruvchi vositalardan biri so'z ma'nosidagi ijobiy va salbiy emotsional ottenkaning mavjudligi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan poetizmlarni poetik nutq emotsionalligini ta'minlovchi muhim leksik vositalar deb hisoblash mumkin [5]. Bu o'rinda ta'kidlash kerakki, qo'llanayotgan undov akti, birinchidan, undovning yoshga xos qo'llanishi, ya'ni bu undov (*Barakalla*) katta yoshdagi shaxsning kichik yoshdagilarga nisbatan qo'llanishida, ikkinchidan, undov akti bilan undalma (*o'g'lim*) bilan birga qo'llanishi natijasida badiiy matnning badiiy qimmatini hamda estetik ta'siri doirasi yanada mukammallashtirilgan. Darhaqiqat, tilshunos olim M.Mirtojiyev ta'kidlaganidek: "Undashlar biror gapga mantiqan bog'lanar ekan, hamma vaqt ular oldidan beriladi va gapdan pauza bilan ajratiladi. Undash fazasi kuchli bo'ladi va u gapning mantiq urg'usi berilgan bo'lagi oldida keladi. ...Ohangning eng yuqori nuqtasi undashda bo'lib, mantiq urg'uli bo'lak bilan ohang jihatdan o'zaro moslashadi" [6]. Shuningdek, ko'chirma gapning keyingi qismi(*javobingiz o'z o'ylag'animchadir*) undov aktining qo'llanish tasdig'ini ko'rsatmoqda hamda undovning hissiy bo'yoqdorlik jihatini shakllantirmoqda. Zero tilshunoslar T.Bushuy va Sh.Safarovlar fikricha ham, tilning behad semantik imkoniyatlari suhbatdoshlarga uning metalisoniy funktsiyasida foydalanish imkonini beradi. Bu so'zlovchining axborotni yanada tushunarliroq, yanada ifodalibroq yetkazish uchun tilning turli vositalaridan foydalanishida o'z ifodasini topadi. Bunday vaziyatlarda tilning o'zi nutq ob'yekti vazifasini bajara boshlaydi [7]. Yuqoridagi parcha(dialog)da o'sha "metalisoniy





funktsiya”ning barcha qabariqlarigacha ko’rsatuvchi va sub’yektning dialogik izchillik muhitini ko’rsatuvchi til birligi undov birligidir. Zero, undov so’zlarning funktsional jihatlarini o’rganish eng muhim hodisa bo’lib, u til “materigining chet qismi” bo’lganligi uchun emas, balki tomchida quyosh etgani kabi tilning nozik jihatlarini qamrashi bilan ahamiyatlidir.

Tilning undov birliklari bo’lgan prototip belgilariga murojaat qilish tildagi aniq va yashirin shakl hamda mazmunning o’zaro ta’siri muammosiga chuqurroq kirib borishga, xususan, lingvistik belgi(undov)ning pragmatik va semantik konversiya hodisasini lingvopoetik ahamiyatini aniqlashga imkon beradi. Zero, til birligining haqiqiy ma’nosi uning semantikasi (ma’nosi) va pragmatikasi (foydalanishning funktsional ahamiyati) bilan belgilanishini boshlang’ich nuqta sifatida, uning badiiy matndagi sin-semantik munosabatda, nutqiy birliklararo aloqalari asosida lingvopoetik tizimli xususiyati (jihatlari) yanada aniqroq yuzaga chiqadi. Badiiy matndagi undov birligining semantik va pragmatik o’zaro ta’siri til birligining til-nutq tizimida integral ahamiyati shakllanadi, shu asosda badiiy matn ijodkorining total niyati amalga oshadi.

1. – ... *Otam sizning bilan o’lturishib Toshkand ahvolotini so’zlashmakka mushtoqdirlar.*

– *Bu saroydan sizlarnikiga ko’chishim og’ir, – dedi Otabek, – ammo otangizning ziyoratlariga borishg’a har qachon hozirman.*

– **Sog’ bo’ling**, bek aka, boradig’an kuningizni tayin qila olasizmi? [8]

2. *Choyxo’r boyvachchalardan birortasi:*

– *Asra!*

*Yoki:*

– *Kal! – deyishi bilan:*

– **Labbay**, mulla aka, choymi, chilimmi? – *deyardi-da, darrov bir qo’lida kichkina choynak, ikkita kichkina xitoy piyola yo bo’lmasa yarqirab turgan kattkon mischilimning sarxonasiga tamaki bosib, ustiga cho’g’ qo’yib, bir-ikki quldiratib tortib, pishitib, kashandaning xizmatiga yugurar edi [9].*

Undov (*Sog’ bo’ling*, *Labbay*) intonatsiya jihatidan o’zi birga kelgan gap bilan bog’langan bo’lsa-da, ko’p holatlarda u gapning boshqa bo’laklaridan o’ziga xos intonatsiyasi bilan ajralib ham turadi. Shuningdek, badiiy asar tilidagi dialogik tuzilmalarning kommunikativ xarakteri muallif “men”ining niyat va ta’riflari, matnning me’yoriy tabiati, badiiy asarning turi va janri, o’z davrining madaniy va lingvo-ijtimoiy an’analari va so’z ijodkorining individual uslubi xususiyatlari muallif nutqining pragmatik yo’nalishi bilan belgilanadi hamda dialogning nutqiy tuzilishida o’z ifodasini topadi. Lekin undov so’zlarga berilgan umumiy ta’riflarga ko’ra, yuqoridagi



birliklar genetik undovlardan hissiy va semantik to'yinganlik jihatidan biroz farqlanadi. Xususan, tilshunos olim Sh.Rahmatullaev bu tur undov birliklarni alohida guruh sifatida ta'riflab quyidagicha fikr bildirib: "Undovlarning alohida guruhi deb kishilar orasidagi muomala-murojaat birliklari keltiriladi. Undovga aylanmagan, hali leksemalik xususiyatini saqlagan bu birliklarni undov turkumiga kiritish o'ta shartli...", – deydi. Darhaqiqat, olimning fikriga ergashgan holda aytishimiz mumkinki, bu til birliklari(*Sog' bo'ling, Labbay*) turli ekstralingvistik va kinetik ko'rsatkichlari bilan gapning boshqa bo'laklari bilan lokal aloqa bog'laydi. Shuningdek, etnosning umummilliy xarakterini o'zida qamrab, turli kinetik harakatlar (*Kinesika* gr. *κίνησις* – *harakat*) – insonning o'zaro ta'siri jarayonida qo'llaniladigan tana harakatlari: imo-ishoralar, mimikalar majmui) bilan nutqiy mukammallikni namoyon etadi. Bu holatda turli matnda qo'llangan undov birligining kinetik mohiyat va ekstralingvistik omillar natijasidagi intonatsiyasi o'zgaruvchanlik kasb etadi. "Chunki undov ma'lum ohang bilan aytilmasa, – deb ta'kidlaydi tilshunos olim E.Qilichev, – u his-tuyg'uni, hayajonni anglata olmaydi. Undov talaffuzidagi turlicha ohang uning qaysi ma'no va maqsadda qo'llanayotganini belgilab beradi" [10]. Darhaqiqat, olim A.Abduazizovga ko'ra ham: "Intonatsiya turlarini eksperimental-fonetik jihatdan tekshirish natijasida ularning akustik strukturasi, grammatik, fonologik (ma'noni farqlash), fonostilistik (ekspressiv ma'no berish) va paralingvistik (ovozning sifati bilan bog'liq bo'lgan alohida talaffuzi, unda imo-ishora va mimikaning boshqaruvi) vazifalarini to'laroq aniqlash mumkin" [11]. Milliy muloqot va muomala qolip(streotip)larimizda ham aynan yuqoridagi lingvistik va ekstralingvistik faktorlar bo'rtib namoyon bo'lib turadi. Misolga olgan yuqoridagi undov(*Sog' bo'ling, Labbay*)da ham bu jihatlar aynan mavjud. Xususan, bu nuqiy birlik qo'llangan badiiy matn kommunikanti ko'z o'ngida milliy kiyimdagi, qo'lini ko'ksiga qo'ygan, yuz ifodasida mayin kulgu, bosh qismi biroz egilgan va, shuningdek, chuqur tavvozu va hurmat bilan gapruvchi, samimiy muloqotga kirishuvchan obraz namoyon bo'ladi. Bunda og'zaki va og'zaki bo'lmagan birlik(ekstrilingvistik omil)lar o'rtasidagi semantik, pragmatik va sintaktik munosabatlar to'plamining tavsifi, ularning kommunikativ akt hamda birgalikdagi faoliyati o'z ifodasini topadi. Undovdan keyin qo'llanayotgan undalma(*bek aka, mulla aka*)lar ham nutqiy akt jarayonida mental-kinetik harakatlar mavjudligini ko'rsatadi. Bundan ko'rinadiki, "...muloqot nafaqat axborotning mantiqiy mazmunini, balki gapirayotgan shaxsning ruhiy holatini, hissiyotini, istaklarini ham ifodalashi mumkin. Bunday holatlarda til o'zining emotiv (emotsional-ekspressiv) funksiyasini bajarishga kirishadi. Ayrim holatlarda muloqot maqsadsiz amalga oshiriladi: bunday hollarda suhbatdoshlar uchun ular o'zaro almashayotgan axborot muhim emas, ular



o'z hissiyotlarini ifodalashga, bu bilan bir-birlariga ta'sir qilishga urinmaydilar. Bu paytda ular uchun faqatgina aloqaga kirishuv muhim, bu orqali keyingi mazmundorroq muloqotga tayyorlanadilar. Bunday hollarda til o'zining fatik funksiyasini (munosabat o'rnatish funksiyasi, aloqaga kirishuv) bajaradi. Tilning fatik funksiyasi salomlashuvlarda, tabriklarda, odatiy va shunga o'xshash mazmundagi suhbatlarda namoyon bo'ladi [12]. Darhaqiqat, muomala shtamplarimizning sertarmoq va hilma-xilligi "ehtimol, madaniy an'analar bizning sintaksimizda mustahkamroq o'rnanib qolganidadir va bu bizning hayotimiz, shuningdek, biz buni istaymizmi yoki yo'qmi, bizning shaxsiy va ijtimoiy o'tmishimizning tarjimai bo'lib qolaveradi [13].

### ADABIYOTLAR:

1. Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского / М.М. Бахтин. – Москва: Советская Россия, 1979. – 318 с.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. I tom. – Toshkent: O'zME, 2020. – B. 605.
3. **Виноградов В.В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. - Москва: Высшая школа, 1972. – 616 с.**
4. Qodiriy A. O'tkan kunlar. Roman. – Toshkent: G'.G'ulom, 2017. – B. 25.
5. Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. –Toshkent: Fan, 1990. – B. 34.
6. Mirtojiev M. O'zbek tili fonetikasi. –Toshkent: Fan, 2013. – B. 411.
7. Bushuy T., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 21.
8. Qodiriy A. O'tkan kunlar. Roman. – Toshkent: G'.G'ulom, 2017. – B. 12.
9. G'.G'ulom. Shum bola. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – B. 3.
10. Qilichev E. O'zbek tilining amaliy stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – B. 81.
11. A.Abduezizov. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2010. – B. 21.
12. Bushuy T., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 21.
13. Steiner G. After Babel. Aspects of language and translation. – New-York – London: Oxford University Press, 1975. – P. 467.

